



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizozov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOYIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOYIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILİYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anjion G'ayratovich	
STRATEGIES TO RAISE AWARENESS OF NATURAL POLLUTION AMIDST RISING POPULATION DENSITY AND GDP PER CAPITA IN UZBEKISTAN	93
Axliddin Aroplitdinovich Valiyev, Askarov Farhod Rakhmatovich	
РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ESG-ОРИЕНТИРОВАННОМ РАЗВИТИИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ.....	99
Айматова Фарида Хуразовна	
KORXONALARDA INVESTITSION FAOLIYATINI RIVOJLANISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	107
Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li	
DEHQON XO'JALIKLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA KREDITLAR MIQDORINI DIFFERENSIYALLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR	113
Xakimov Zafar Ibragimovich	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	118
Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA HUDUDIY MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	124
Muhammadieva Nodira	
SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUDUDIY RIVOJLANISHNI STATISTIK HISOBLASH METODOLOGIYASINI QAYTA BAHOLASH MEZONLARI (SCOPUS VA WEB OF SCIENCE DA INDEKSLANGAN ILMIY NASHRLAR TAHLILI ASOSIDA).....	131
Santjar Abdumurodovich Sattorov	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY-IQTISODIY OMILLARI VA ISTIQBOLLARI	139
Allamuratova Perida Maxsetbaevna	



XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI VA AHAMIYATI	144
Ro'zmatova Farahongiz Bekmurotovna, Yarmetova Nargiza Shiximbayevna	
MAHALLIY VA XALQARO TURIZM BOZORIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI, TAMOIYILLARI VA MEKANIZMLARI	152
Alikulov Samar Abdurashidovich	
TRANSPORT XIZMATLARINING SOHALAR BO'YICHA TAQSIMOTI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TASNIFI	159
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
RAQAMLI TO'LOVLAR VA O'ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV SHAFFOFLIGI	165
Ruziyeva Barno Yadgarovna	
ESG-ТРАНСФОРМАЦИЯ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МИРОВЫЕ ПРАКТИКИ.....	172
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
MAJBURIY IJRO HARAKATLARINI RAQAMLASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	177
Matmuratova Nasiba Azatovna	
OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA KICHIK BIZNESNING RAQOBATBARDOSHLIGINI CHEKLOVCHI OMILLAR TAHLILI	181
Pulatov Abdulla	
INVESTITSION LOYIHALARNING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA ULARNI MOLIYALASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	185
Nazarov Aziz Avazovich	
ФИНАНСОВАЯ УСТОЙЧИВОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ.....	190
Тажибаева Кызларгул Ажиниязовна	
IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA SANOAT KORXONALARI FAOLIYATINI DIVERSIFIKATSIYALASHNING MAQSADLI PROGNOZ PARAMETRLARI.....	197
Omonova Nafisa Qahramon qizi	
MANAGEMENT STRATEGIES IN WOMEN'S BUSINESS: GENDER-SPECIFIC APPROACHES, INNOVATIVE MODELS, AND DIGITAL TRANSFORMATION.....	200
Ahrorova Asila	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	207
Hakimova Oydina Abdulhamidovna, Yuldasheva Nilufar Abduvaxidovna	
INSON TARAQQIYOTI INDEKSI VA UNI ANIQLAB BERUVCHI KO'RSATKICHLARNING KORRELYATSION-REGRESSION TAHLILI.....	212
Tursunov Rasul Tairovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПЕРЕХОДА НА МЕЖДУНАРОДНЫЕ СТАНДАРТЫ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ.....	218
Эргашева Феруза Насруллаевна	
ENHANCING THE METHODOLOGICAL FRAMEWORK FOR THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM VILLAGES IN UZBEKISTAN.....	226
Khudaynazarova Dilorom Khayrullaevna	
THE ROLE OF INNOVATION IN ENSURING COMPETITIVENESS IN THE GREEN ECONOMY	231
Musadjanova Nargiza Abduvoxid qizi	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA INGLIZ TILINING O'RNI VA SAMARADORLIGI.....	238
Saodat Sadriddinova	
OLIY TA'LIMDA CHET TILLARNI O'QITISH UCHUN RAQAMLI BOSHQARUV STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	243
Saida Xabibullayeva	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИСКАЛЬНЫХ МЕХАНИЗМОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В СФЕРЕ ТУРИЗМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	247
Исматиллаева Роза Тухтамуратовна, Тураева Сурия Тельмановна	



INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERINING QIYMAT YARATISH UZLUKSIZ ZANJIRIDA AGROSERVIS XIZMATLARI KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	252
Kudratova Iroda Turdibayevna	
QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTIDA DIVERSIFIKATSIYANING AHAMIYATI	257
Nurullayeva Raushan Koptleuovna, Nurimbetov Timur Uzaqbergenovich	
FIZIKA UMUMIY KURSIGA NANOTEXNOLOGIYA TUSHUNCHALARINI KIRITISHNING METODIK ASPEKTLARI VA KOMPONENTLARI	260
Sottarov Abduvali Umirqulovich	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK HISOBOTLAR VA ULARNING TUTGAN O'RNI.....	266
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	272
Rahmanova Sitara Bahodir qizi	
SANOAT KORXONALARIDA OPERATSION MENEJMENT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	277
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH.....	283
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
QISHLOQ XO'JALIGIDA INNOVATSION INVESTITSİYALASH VA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI JORIY ETISH (SIRDARYO VILOYATI MISOLIDA)	286
Maxamadiyev Turg'unboy Jumabayevich	
O'ZBEKISTONDA XO'JALIK JAMIYATLARI KUZATUV KENGASHLARI FAOLIYATINING ILMIY-METODOLOGIK ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH.....	292
Valijonov Akmaljon	
IQTISODIYOTNING AGRAR SEKTORIDA INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISH: NAZARIY VA USLUBIY YONDASHUVLAR	296
Matrasulov Baxodir Erbutayevich	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA MAHALLIY MOLIYANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	303
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
МЕТОД ФОРМИРОВАНИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ТУРИСТИЧЕСКОГО ПАКЕТА	308
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI XUDUDIY TARKIBINI TAKOMILASHTIRISH YO'LLARI	311
Uralov Eliboy Omonovich	
INNOVATSION VA AN'ANAVIY YONDASHUVLAR ASOSIDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING TAQQOSLAMA TAHLILI	316
Abdusfarmonov Farrux Faxriddinovich	
EKSPORT IMKONIYATLARI VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI SOLISHTIRISH.....	320
Safarova Muxabbat Radjabovna	
IJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI O'SISHI DINAMIKASI VA LIKVIDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK	324
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
KO'CHMAS MULKNI OMMAVIY BAHOLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARI.....	331
Xushvaqtov Jasur Shuhrat o'g'li	
TURIZM XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI MHXS GA O'TKAZISHDA TRANSFORMATSIYA REJASINI ISHLAB CHIQUISH MASALALARI.....	339
G'afforov Ilhomjon Ilyosjonovich	
QURILISH SANOATI KORXONALARI DIVERSIFIKATSIYALASHUVINING IQTISODIY MEXANIZMLARI	343
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANISHNING NAZARIY JIHATLARI	351
Ulashova Zarnigor Botirali qizi	



KAPITAL BOZORI ORQALI MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA INVESTITSIYA JALB QILISHNING BELARUS TAJRIBASI	357
Abduraxmanov Adham Raxmatullayevich	
BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGI AMALIYOTLARINI JORIY ETISHDA XULQ-ATVOR OMILLARINING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI	362
Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich	
SANOAT KORXONALARIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	367
Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov	
O'ZBEKISTONDA MEHMONXONALARNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI JOYLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	373
Xasanova Naimaxon Akmal qizi	
SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	381
Jovliyeva Zuhra Chori qizi	



SOLIQ YUKINI OPTIMALLASHTIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Jovliyeva Zuhra Chori qizi

Termiz davlat universiteti
magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq yukini optimallashtirish masalasi xorijiy tajriba asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi soliq yukini optimallashtirish bo'yicha xorijiy davlatlar yondashuvlarini tahlil qilish va ularni O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini asoslashdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, institutsional yondashuv, fiskal samaradorlik va ma'murchilik xarajatlari mezonlari qo'llanilgan. Soliq siyosatining barqarorligi norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish va ixtiyoriy rioya darajasini oshirish orqali budjet tushumlari sifatini yaxshilash imkonini beradi. Shuningdek, maqolada raqamli soliq ma'murchiligi vositalaridan foydalanish orqali soliq bazasini kengaytirish va fiskal samaradorlikni oshirish imkoniyatlari ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: soliq, soliq tizimi, soliq yuki, soliq tushumlari, soliq yukini optimallashtirish, soliq bazasi, soliq imtiyozlari, ma'murchilik xarajatlari, raqamli soliq ma'murchiligi.

Abstract. This article analyzes the issue of optimizing the tax burden based on foreign experience. The purpose of the study is to examine foreign approaches to tax burden optimization and justify the possibilities of their application in the context of Uzbekistan. The study applies comparative analysis, institutional approach, fiscal efficiency, and administrative cost criteria. The stability of tax policy makes it possible to improve the quality of budget revenues by reducing the share of the informal economy and increasing the level of voluntary compliance. In addition, the article highlights the possibilities of expanding the tax base and improving fiscal efficiency through the use of digital tax administration tools.

Key words: taxes, tax system, tax burden, tax revenues, tax burden optimization, tax base, tax incentives, administrative costs, digital tax administration.

Аннотация. В данной статье анализируется вопрос оптимизации налоговой нагрузки на основе зарубежного опыта. Цель исследования заключается в анализе зарубежных подходов к оптимизации налоговой нагрузки и обосновании возможностей их применения в условиях Узбекистана. В исследовании используются критерии сравнительного анализа, институционального подхода, фискальной эффективности и административных издержек. Стабильность налоговой политики позволяет повысить качество бюджетных поступлений за счёт сокращения доли неформальной экономики и повышения уровня добровольного соблюдения налогового законодательства. Кроме того, в статье освещаются возможности расширения налоговой базы и повышения фискальной эффективности за счёт использования инструментов цифрового налогового администрирования.

Ключевые слова: налоги, налоговая система, налоговая нагрузка, налоговые поступления, оптимизация налоговой нагрузки, налоговая база, налоговые льготы, административные расходы, цифровое налоговое администрирование.

KIRISH

Soliqlar davlat iqtisodiyotini tartibga solish va soliq to'lovchilar faoliyatini boshqarishda asosiy vositalardan biri bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarni shakllantiradi. Samarali soliq tizimi budjetga o'z vaqtida tushumlarni ta'minlab, davlat moliyasining barqarorligini kafolatlaydi hamda iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratadi. Mamlakat soliq tizimining tuzilishi uning umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Yaxshi tashkil etilgan tizim soliq to'lovchilar uchun qulay, davlat uchun esa yetarli daromad manbai bo'lib, iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, takomillashtirishni talab qiluvchi tizim xarajatlarning oshishiga, biznes qarorlarining murakkablashishiga va iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda soliq tizimida fiskal yukning notekis taqsimlanishi, ayrim imtiyozlarning yetarli samaradorlikka ega emasligi kabi masalalar mavjud bo'lib, ular tadbirkorlik faolligiga ta'sir ko'rsatishi va soliq samaradorligini cheklashi mumkin. Shu bois, soliq yukini optimallashtirish masalasi ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Soliq yukining maqbul darajasi iqtisodiy jarayonlarni rag'batlantirib, investitsiyalarni jalb qilish va ishlab chiqarishni kengaytirish imkonini beradi.

Ta'kidlash joizki, soliq yuki darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri bu soliq imtiyozlari hisoblanadi. Jahon soliq solish amaliyotida soliq imtiyozlaridan foydalanish bilan bog'liq ikki muqobil yondashuv kuzatiladi. Birinchi yondashuvda umumiy va nisbatan yuqori soliq stavkalari qo'llanilgan holda, ayrim sohalar uchun soliq



stavkalarini differensiallashtirish, ko'plab soliq imtiyozlari va soliqqa tortiladigan daromaddan chegirmalarni joriy etish orqali iqtisodiyotdagi soliq yukini optimallashtirishga erishiladi.

Ikkinchi yondashuvda esa soliq imtiyozlari va chegirmalarini qisqartirish orqali soliq bazasini kengaytirish hamda umumiy soliq stavkalarini pasaytirish yo'li bilan soliq yukini kamaytirishga erishiladi. Mazkur maqolada xorijiy davlatlar, xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi asosida O'zbekiston uchun soliq yukini optimallashtirish yo'llari tahlil qilinadi. Chunki global tajribalar milliy islohotlarni amalga oshirishda samarali yechimlar taklif etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Soliq tizimini takomillashtirish muammolari va masalalariga Arthur Laffer, Adam Smith, Milton Friedman hamda Arthur Pigou kabi xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida katta e'tibor qaratilgan. Ularning tadqiqotlarida soliqning iqtisodiy o'sishga ta'siri, soliq stavkalari va budget tushumlari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, soliq siyosatining investitsion faollikka ta'siri asoslab berilgan.

Mamlakat iqtisodiyotiga soliq yukini baholash va optimallashtirish metodologiyasini o'rganishda Ahror Vaxobov, Ilyos Niyazmetov, Ulugbek Pardaev, Aziz Nazarov, Anvar Jo'raev va boshqa o'zbek olimlari katta hissa qo'shgan. Ularning ilmiy ishlarida soliq yukining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri, soliq bazasini kengaytirish, soliq imtiyozlarining samaradorligi hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.

Biroq, makro darajadagi soliq yukini xorijiy tajriba bilan solishtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar hajmi katta bo'lishiga qaramay, O'zbekiston sharoitida soliq yukini optimallashtirish masalasi hali ham chuqur o'rganishni talab qiladi. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari tajribasi asosida soliq imtiyozlari, soliq stavkalari va ma'murchilik xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni aniqlash dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, zamonaviy ilmiy adabiyotlarda soliq yukini optimallashtirishda raqamli texnologiyalar va elektron soliq ma'murchiligi tizimlarining ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa mashinalari, soliq hisobotlarini avtomatlashtirish va katta ma'lumotlar (Big Data) tahlilidan foydalanish soliq bazasini kengaytirish, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish hamda soliq to'lovchilarning ixtiyoriy rioya darajasini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda ham raqamli soliq ma'murchiligini rivojlantirish soliq yukini optimallashtirishning muhim vositalaridan biri sifatida qaralmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada statistik guruhlash, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-taqqoslash va institutsional yondashuv usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida xorijiy mamlakatlarda soliq yukini optimallashtirish bo'yicha mavjud tajribalar o'rganilib, ularning O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlari tahlil qilindi.

Shuningdek, O'zbekiston soliq tizimi samaradorligini baholash, yalpi ichki mahsulotga nisbatan soliq yuki dinamikasini aniqlash hamda soliq siyosatining fiskal samaradorlikka ta'sirini o'rganishda statistik va qiyosiy tahlil usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqot davomida soliq imtiyozlari, ma'murchilik xarajatlari va soliq bazasining o'zgarishlari o'rtasidagi bog'liqlik ham tahlil qilindi.

Bundan tashqari, xorijiy davlatlar tajribasi asosida soliq yukini optimallashtirishning samarali yo'nalishlarini aniqlash maqsadida institutsional yondashuv qo'llanilib, O'zbekiston soliq tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Soliq yuki iqtisodiyotda davlatning qayta taqsimlash ulushi va xususiy sektor rag'batlari o'rtasidagi muvozanatni belgilovchi markaziy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. U faqat nominal stavkalar yig'indisi emas, balki soliq bazasining qamrovi, imtiyozlar, undirish va nazorat mexanizmlarining sifati, hisobdorlikning qulayligi hamda yakuniy natijada soliq to'lovchi zimmasiga tushadigan jami to'lovlar va vaqt xarajatlarning kompleks ifodasidir. Shu sababli, soliq yukini optimallashtirish masalasi odatda faqat "stavkani pasaytirish" bilan cheklanmaydi. Aksincha, u fiskal barqarorlik, adolat, raqobatbardoshlik va ma'murchilik samaradorligini bir vaqtning o'zida ta'minlaydigan institutsional yechimlar majmuini talab etadi.

Mazkur maqolada optimallashtirish soliq tushumlarini keskin kamaytirmagan holda iqtisodiy o'sish va investitsion rag'batlarni kuchaytirish, norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirish, ixtiyoriy to'lovlar darajasini oshirish hamda soliq ma'murchiligi xarajatlarini kamaytirish orqali umumiy farovonlikni maksimal darajaga yetkazishga qaratilgan maqsadli jarayon sifatida talqin qilinadi.

Nazariy jihatdan optimallashtirishning muhim tayanchi soliq stavkalari va budget tushumlari o'rtasidagi nonlineer bog'liqlikni ko'rsatadigan Arthur Laffer yondashuvi hisoblanadi. Biroq uni amaliy siyosatga bevosita tatbiq etish metodologik xatolarga olib kelishi mumkin. Laffer g'oyasiga ko'ra, haddan tashqari yuqori stavkalar soliq bazasini toraytiradi, norasmiy iqtisodiy faoliyatni kengaytiradi va natijada budget tushumlarini kamaytiradi.



Shu bilan birga, egri chiziqning “optimal nuqtasi” mamlakatlar kesimida institutlar sifati, soliq intizomi, bozor tuzilmasi va ma’urchilik imkoniyatlariga qarab farqlanadi [3].

Shu sababli, xorijiy tajribani o’rganishda diqqat markazida faqat stavkalar darajasi emas, balki stavkalarining soliq bazasi bilan bog’liqligi, imtiyozlarning bazaga ta’siri, ma’urchilik jarayonlarining soddaligi va nazoratning qaysi segmentlarga yo’naltirilgani turishi lozim. Rossiya moliya nazariyasida ham soliq yuki ko’p omilli ko’rsatkich sifatida yoritilib, soliqlarni hisoblashdagi murakkablik va undirish institutlarining samaradorligi real soliq yukiga sezilarli ta’sir ko’rsatishi qayd etiladi [2].

O’zbekiston amaliyoti uchun ushbu yondashuv ayniqsa dolzarb hisoblanadi, chunki soliq siyosatidagi o’zgarishlar biznesning rejalashtirish ufqiga, kapital xarajatlar bo’yicha qarorlarga va rasmiy sektorda faoliyat yuritish motivatsiyasiga bevosita ta’sir qiladi.

Soliq tizimi mamlakat iqtisodiyotiga va tadbirkorlik subyektlariga sezilarli ta’sir ko’rsatadi, chunki soliqlar budjetning asosiy daromad manbai bo’lib, moliya tizimini qo’llab-quvvatlaydi. Soliq yukining optimallashtirilishi xorijiy tajribada yalpi ichki mahsulotdagi ulushi orqali baholanadi. Bunda optimal daraja iqtisodiy o’sish va fiskal barqarorlik o’rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi.

O’zbekistonda so’nggi yillarda soliq yuki yalpi ichki mahsulotga nisbatan taxminan 20–22 foiz atrofida shakllanib, ayrim xorijiy mamlakatlarga nisbatan nisbatan pastroq darajada saqlanmoqda. Shu bilan birga, soliq yukini yanada optimallashtirish uchun raqamli soliq ma’urchiligini rivojlantirish, imtiyozlar tizimini takomillashtirish va soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni izchil davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi (1-jadval).


1-jadval. O’zbekistonda 2021–2024-yillarda soliq yuki darajasi¹

Ko’rsatkichlar	2021-y	2022-y	2023-y	2024-y
Davlat budjeti tushumlari, mlrd. so’m	164 681	202 043	231 700	274 423
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so’m	734 600	888 300	1 066 569	1 454 600
Soliq yukining umumiy darajasi	22,4%	22,7%	21,7%	18,9%

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinadiki, 2021–2024-yillar davomida soliq yukining umumiy darajasi 21 foiz atrofida nisbatan barqaror shakllangan. Bu esa tadbirkorlik subyektlari va aholi tomonidan yaratilgan daromadlarning muayyan qismi davlat budjeti va ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirishga yo’naltirilayotganini ko’rsatadi.

2024-yilda 2021-yilga nisbatan soliq yuki darajasining 3 foizga, o’tgan yilga nisbatan esa 2 foizga kamaygani kuzatiladi. 2023-yilda esa soliq yukining umumiy darajasi 2021-yilga nisbatan 0,7 foizga pasayib, 21,7 foizni tashkil etgan. Shu bilan birga, ushbu davrda yalpi ichki mahsulot va soliq tushumlarining sezilarli darajada oshib borganini qayd etilgan. Bu esa soliq yukining nisbatan maqbul darajada shakllanayotgani va iqtisodiy faollikning kengayib borayotganidan dalolat beradi.

Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida soliq yuki o’rtacha 39–40 foizni tashkil etadi. Bu holat, asosan, yuqori ijtimoiy xarajatlar va rivojlangan ijtimoiy himoya tizimlari bilan bog’liqdir. O’zbekistonda soliq yukining nisbatan past darajada shakllangani biznes subyektlari uchun qulay muhit yaratadi. Shu bilan birga, fiskal barqarorlikni ta’minlash maqsadida soliq bazasini kengaytirish, raqamli soliq ma’urchiligini rivojlantirish va soliq imtiyozlari samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.



1-rasm. 2024-yilda Yevropa Ittifoqi va O’zbekiston iqtisodiyotida soliq yuki²

1 Muallif tomonidan soliq statistika ma’lumotlari asosida hisoblangan.

2 Muallif tomonidan <https://statranker.org/economy/budget-and-taxes/top-10-countries-by-tax-to-gdp-ratio-2025> va <https://gov.uz/oz/soliq/news/view/46145> asosida tuzildi.



1-rasmdan ko'rinib turibdiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari orasida eng yuqori soliq yuki Denmarkda (45,2 foiz), Franceda (43,5 foiz) va Belgiyda (42,8 foiz) qayd etilgan. Shu bilan birga, Romania (28,8 foiz) va Irland (22,4 foiz) nisbatan past soliq yukiga ega mamlakatlar qatoriga kiradi. O'zbekistonda esa soliq yuki taxminan 18,9 foizni tashkil etib, rivojlangan Yevropa davlatlariga nisbatan ancha past darajada shakllangan.

Denmark (45,8 foiz) va France (45,3 foiz)da yuqori soliq yukining ustunligi ularning rivojlangan ijtimoiy modeliga asoslanadi. Xususan, Daniyada jismoniy shaxslar daromad solig'i 55,9 foizgacha yetadi, bu esa aholiga yuqori sifatli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish imkonini beradi. O'zbekistonda (20 foiz atrofida) va Irlandda (22,4 foiz) soliq yukining nisbatan past darajada shakllanishi biznesni rag'batlantirishga yo'naltirilgan siyosat bilan izohlanadi. Irlandiyada korporativ soliq stavkasining 12,5 foiz etib belgilanishi investitsiyalarni jalb qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun xorijiy tajriba asosida soliq yukining nisbatan past darajasini saqlab qolgan holda soliq bazasini kengaytirish maqbul yo'nalish sifatida baholanadi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi soliq yukini optimallashtirishda uchta barqaror tamoyilni ajratib ko'rsatadi. Birinchisi, soliq bazasini keng saqlagan holda stavkalarni nisbatan mo'tadil darajada belgilash tamoyilidir. Bu yondashuv imtiyozlar va istisnolarni minimallashtirish evaziga soliq tizimini yanada adolatli qiladi, resurslarning samarasiz qayta taqsimlanishini kamaytiradi va ma'murchilikni soddalashtiradi. Bazaning kengligi tushumlarni barqarorlashtiradi, stavkalarni pasaytirish esa ixtiyoriy rioya darajasini va investitsion rag'batlarni oshiradi [5].

Ikkinchi tamoyil ma'murchilik va rioya xarajatlarini qisqartirish bilan bog'liq. Bunda raqamli yechimlar, standartlashtirilgan hisobotlar, elektron hisob-fakturalar va real vaqt ma'lumotlariga asoslangan nazorat mexanizmlari muhim o'rin tutadi. Uchinchi tamoyil esa tavakkalchilikka asoslangan nazorat va segmentatsiyalangan yondashuvdan iborat bo'lib, bunda nazorat resurslari yuqori xavfli soliq to'lovchilarga yo'naltiriladi, halol segment esa ortiqcha tekshiruvlardan holi qilinadi. Natijada davlatning nazorat xarajatlari kamayadi va biznes muhitining samaradorligi ortadi [6].

Xorijiy tajribada optimallashtirishning muhim mexanizmlaridan biri soliq imtiyozlarini tizimli ravishda qayta ko'rib chiqish hisoblanadi. Imtiyozlar investitsiyalarni rag'batlantirish yoki ijtimoiy vazifalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy etiladi, biroq ular har doim ham kutilgan natijani bermasligi mumkin. Imtiyozlar ayrim tarmoqlar yoki subyektlarga ustunlik berishi, soliq bazasini qisqartirishi va raqobat muhitiga ta'sir ko'rsatishi ehtimoli mavjud. Shu sababli xalqaro tashkilotlar imtiyozlarni "soliq xarajatlari" sifatida baholab, ularni ochiq hisobdorlik asosida yuritish va har bir preferensiya bo'yicha aniq natija indikatorlarini belgilashni tavsiya etadi [5].

O'zbekiston sharoitida ham soliq xarajatlarini optimallashtirish, imtiyozlarning amal qilish muddatlarini va bekor qilish shartlarini oldindan belgilash, ularning tarmoq ichidagi raqobatga ta'sirini baholash muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv nominal stavkalarni keskin o'zgartirmagan holda ham soliq bazasining yanada adolatli taqsimlanishiga va budget tushumlarining barqarorlashishiga xizmat qiladi.

Ikkinchi muhim yo'nalish qo'shilgan qiymat solig'i va iste'mol soliqlarini ma'murchilik jihatdan optimallashtirishdir. Xorijiy amaliyot shuni ko'rsatadiki, QQS bo'yicha kreditlash zanjiri qanchalik shaffof va raqamli nazorat bilan bog'langan bo'lsa, soxta hisob-fakturalar va noqonuniy qaytarish holatlari shunchalik kamayadi. Shu bilan birga, halol biznes subyektlarining aylanma mablag'lari kamroq vaqt davomida "muzlab" qoladi. Raqamlashtirishning iqtisodiy mantiqi shundaki, davlat tekshiruvlardan ko'ra ma'lumotlar mosligini avtomatik ravishda aniqlashga ko'proq tayansa, nazorat xarajatlari pasayadi va soliq yukining tarkibidagi ma'murchilik xarajatlari qisqaradi.

Uchinchi yo'nalish mehnatga soliq yukini optimallashtirish bilan bog'liq bo'lib, xorijiy tajribada bu masala bandlikni rasmiylashtirish va inson kapitaliga investitsiyalar bilan uzviy bog'lanadi. Mehnat soliqlari va ajratmalarining yuqoriligi ayrim hollarda norasmiy bandlikni rag'batlantirishi, ayniqsa kichik biznes va xizmatlar sektorida naqd hisob-kitoblarning ulushini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, mehnat yukini keskin pasaytirish pensiya va ijtimoiy fondlar barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli optimallashtirish odatda ikki bosqichli yondashuvni talab qiladi: bir tomondan, bazani kengaytirish va bandlikni rasmiylashtirish orqali tushumlarni saqlab qolish, ikkinchi tomondan esa past daromadli sohalar uchun maqsadli yengilliklar yoki regressivlikni kamaytiruvchi mexanizmlarni joriy etish.

Optimallashtirishning natijadorligini baholash uchun mezonlar tizimini ishlab chiqish ham muhimdir. Fiskal mezonlar (tushumlar barqarorligi, soliq bazasining kengligi), iqtisodiy mezonlar (investitsion faollik, rasmiy bandlik), ma'murchilik mezonlari (tekshiruvlar soni va aniqlangan xatolar nisbati, qaytarish tezligi) hamda institutsional mezonlar (nizolar soni, sudlashuv ulushi, ixtiyoriy rioya darajasi) bunday tizimning asosini tashkil etadi. Ushbu mezonlar xorijiy adabiyotlarda soliq ma'murchiligi samaradorligini baholashda qo'llaniladigan yondashuvlar bilan uyg'un bo'lib, ularning amaliy mohiyati shundaki, soliq yukini optimallashtirish nafaqat budget tushumlarining oshishi, balki tizimning umumiy tranzaksiya xarajatlari kamayishi va ishonch darajasining ortishi bilan ham baholanadi [1; 6].



XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq yukini optimallashtirish xorijiy tajribada stavkalarni oddiy pasaytirish emas, balki soliq bazasini kengaytirish, imtiyozlarni natijadorlik asosida qayta ko'rib chiqish, ma'murchilikni raqamlashtirish va tavakkalchilikka asoslangan nazoratni joriy etish orqali real soliq yukining tarkibini muvozanatlashtirish sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribalarni qo'llash, eng avvalo, soliq xarajatlarini shaffof hisobga olish, QQS ma'murchiligida riskka asoslangan tezkor qaytarish mexanizmlarini kengaytirish, mehnat soliqlari bo'yicha rasmiylashtirishni rag'batlantiradigan soddalashtirilgan yondashuvlarni joriy etish va servis tamoyillarini rivojlantirish orqali yuqori samaradorlik berishi mumkin.

Shuningdek, korporativ soliq bazasini huquqiy aniqlik va prognozlilik tamoyillari asosida himoya qilish, soliq imtiyozlarining samaradorligini muntazam baholab borish hamda raqamli soliq ma'murchiligi vositalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Taklif etilgan mezonlar tizimi optimallashtirish natijalarini fiskal barqarorlik, iqtisodiy rag'batlar va ma'murchilik xarajatlari uyg'unligida baholashga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida soliq siyosatini takomillashtirish va soliq yukining maqbul darajasini shakllantirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Richard Musgrave, Peggy Musgrave. Public Finance in Theory and Practice. – New York: McGraw-Hill, 1989. – 627 p.
2. Igor Mayburov. Теория и практика налогового регулирования. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2011. – 352 с.
3. Arthur Laffer. The Laffer Curve: Past, Present, and Future. – Washington, DC: The Heritage Foundation, 2004. – 32 p.
4. Nodir Yuldashev. Солиқ сиёсати ва унинг иқтисодий ўсишга таъсири. – Тошкент: Iqtisodiyot, 2018. – 216 б.
5. OECD. Tax Administration 2022: Comparative Information on OECD and Other Advanced and Emerging Economies. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 338 p.
6. James Alm. Tax Compliance and Administration. In: Alan Auerbach, Raj Chetty, Martin Feldstein, Emmanuel Saez (eds.). Handbook of Public Economics. – Amsterdam: Elsevier, 2013. – Vol. 5. – P. 1–66.
7. Shavkat Toshmatov. Солиқ маъмурчилигини такомиллаштиришнинг институционал асослари. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2020. – 184 б.
8. Ulugbek To'lakov. Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon. // Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. – 2024. – №10. – B. 278–286.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
